

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENT TA'LIM
MUASSASALARI
AGENTLIGI



AGENCY FOR
PRESIDENTIAL EDUCATIONAL
INSTITUTIONS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TOSHKENT SHAHRIDAGI
PREZIDENT MAKTABI

PRESIDENTIAL SCHOOL IN
TASHKENT

O'zbekiston, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Do'rmon Yo'li ko'chasi, 31-B uy
Tel.:(+998-71) 207-99-98, e-mail:prmttd@piima.uz. veb sayt: www.piima.uz

«28» 06 2022-y

№ 01/2-252

« » 2022 y.

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent shahridagi Prezident maktabi 2022-2023 o'quv yili uchun 68 nafar o'quvchilari uchun maktab formasi va maxsus kiyimlarni xarid qilish uchun eng yaxshi takliflar bo'yicha 2022 yilning iyun oyi uchun ish va xizmat bajaruvchi tashkilotlar o'rtasida baholash mezonini orqali tanlov e'lon qiladi.
(68x1800900=122 461 200)

Ijrochi direktori:

S. Shakirova

TASDIQLAYMAN

Toshkent shahridagi
Prezident maktabi

(Imzo)



C. b. Maxupoba

» _____

Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'quvchilari uchun maktab formasi va maxsus kiyimlarni xarid qilish uchun eng yaxshi takliflarni

TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARI

Toshkent – 2022 y.

Tadbirkorlardan talab etiladigan xujjatlar to'plami:

1. Korxonaga guvohnomasi va shartnomasi

2. Bank ma'lumotnomasi

3. Soliq ma'lumotnomasi.

4. Kafolat xati

I. ISHTIROKCHILAR UCHUN QO‘LLANMA

1. Eng yaxshi takliflarni tanlash (Tanlash) predmeti

Maktab o‘quvchilari uchun maktab formasi, yotoqxonada choyshablari va maxsus kiyimlarni (matn davomida “Tovarlar”) xarid qilish.

Davlat buyurtmachisi – Toshkent shahridagi Prezident maktabi (matn davomida Buyurtmachi deb yuritiladi).

Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlariga ko‘ra g‘oliblarni tanlash, ishtirokchilarining takliflarini baholash bo‘yicha e‘lon qilingan mezonlar asosida Tanlash xarid komissiyasi (matn davomida Komissiya deb yuritiladi) tomonidan aniqlanadi. Komissiya tarkibi Buyurtmachi tomonidan shakllantiriladi.

2. Tanlash doirasida taqdim etiladigan har qanday hujjatlarning (ma‘lumotlarning) maxfiyligi.

2.1. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, tanlash o‘tkazish vaqtida ham, u tugagandan so‘ng ham, baholash tartibotiga rasmiy ravishda aloqador bo‘lmagan shaxslarga xabar qilinmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Maxfiy ma‘lumotlarni oshkor qilganlik uchun Komissiyasi a‘zolari, ishchi guruhlar va/yoki mutaxassislar guruhi javobgar bo‘ladi (O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasi).

3. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan tushuntirish berish

3.1. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari (matn davomi Tanlash hujjatlari) yuzasidan so‘rov yuborish uchun ishtirokchilar davlat buyurtmachisiga yozma ravishda quyidagi manzilga murojaat yuborishi mumkin:

Toshkent shahridagi Prezident maktabi .

Manzil: Toshkent sh. Mirzo Ulugbek tumani Dormon yo‘li 31- b uy.

Tel: +99890-902-4200.

Mas‘ullar: Ijrochi director S.B.Shakirova

3.2. Tanlash hujjatlari yuzasidan tushuntirishlar berish bo‘yicha so‘rov, tanlash ishtirokchisi tomonidan tanlash takliflarini berish muddati tugashidan kamida ikki kun oldin yozma ravishda so‘ralishi mumkin. Davlat buyurtmachisi ko‘rsatilgan so‘rov olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tushuntirish javobini yuborishi shart.

4. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini tayyorlash va taqdim etish

4.1. Tanlash ishtirokchisi o‘zining tanlash takliflarini tayyorlash va taqdim etish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni o‘z zimmasiga oladi. Buyurtmachi va Komissiya tanlash natijalaridan qat‘iy nazar mazkur xarajatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

4.2. Tanlash ishtirokchilarining takliflari unga bog‘liq hujjatlar hamda ishtirokchi va buyurtmachi o‘rtasidagi barcha yozishmalar o‘zbek yoki rus tillarida bo‘lishi lozim.

4.3. Tanlash ishtirokchilarning takliflari Davlat buyurtmachisi tomonidan

2022 yil “_____” _____ (maxsus axborot portalida chop etilgan e’londa ko’rsatilgan muddat kelguncha) mahalliy vaqt bilan soat 15:00 gacha, bayram, shanba va yakshanba kunlaridan tashqari, quyidagi manzil bo’yicha muhrlangan konvertlarda qabul qilinadi:

Manzil: **Toshkent sh. Mirzo Ulugbek tumani Dormon yo’li 31- b uy (Toshkent shahridagi Prezident maktabiga).**

Tanlash ishtirokchilarining takliflari ko’rsatilgan manzilga pochta orqali yoki ishtirokchining vakili orqali yetkaziladi.

4.4. Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli. Ishtirokchining taklifiga tanlash predmeti hisoblangan barcha tovarlar kiritilishi lozim.

4.5. Muhrlangan konvertlar tanlash ishtirokchilarining takliflari Buyurtmachi tomonidan konvertlar qabul qilingan sana va vaqti ko’rsatilgan holda, hamda qabul qilayotgan va topshirayotgan shaxsning imzosi bilan Tanlash takliflarni qabul qilish jurnalida qayd qilish orqali qabul qilinadi. Konvertlar qabul qilinayotganda ularning tegishli ravishda rasmiylashtirilishi, umumiy ko’rinishi va butunligi (muhr notekisligi/ buzilganligi va/yoki yirtilganligi) tekshiriladi.

4.6. Belgilangan muddatdan keyin taqdim qilingan, yelimlanmagan, imzolamagan va tanlash ishtirokchisi muhri bilan tasdiqlanmagan tanlash takliflari qabul qilinmaydi va ishtirokchilarga konvertni ochmagan holda qaytariladi.

4.7. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi o’zining tanlash hujjatlarini imzolash huquqiga ega bo’lgan vakilini tayinlash huquqiga ega. Vakilning vakolatlari tanlash ishtirokchisi-korxonalar rahbari muhri va imzosi bilan tasdiqlangan, tanlash ishtirokchisi nomidan ishonchnoma bilan tasdiqlangan bo’lishi lozim. Ishonchnoma Komissiyaga vakolatga ega bo’lgan shaxs tomonidan konvertni ochish vaqtida va/yoki talab bo’yicha Komissiya tomonidan qo’shimcha ma’lumotlarni taqdim qilish vaqtida taqdim qilinadi.

4.8. Tanlash ishtirokchisi hujjatlari korxonalar rahbarining o’zi tomonidan imzolangan va ishtirok etgan taqdirda ishonchnoma taqdim qilinmaydi.

4.9. Tanlash taklifi hujjatlarida satrlar orasida hech qanday qo’shimchalar, tuzatishlar va qo’shib yozishlar kuchga ega emas va ko’rib chiqilmaydi.

5. Texnik taklif

5.1. Ishtirokchi texnik taklif jadvalining asl nusxasini, ushbu yo’riqnomaga ilova qilingan 3-sonli ilovaga muvofiq rasmiylashtirib tizim orqali elektron shaklda taqdim etishi lozim.

5.2. Texnik taklif tanlash hujjatining texnik topshiriq qismida ko’rsatilgan talablarga muvofiq bo’lishi lozim. Belgilangan talablarga nisbatan ustun takliflar bilan xizmatlarni yetkazib berish bo’yicha takliflarga yo’l qo’yiladi. Bunda ustun takliflarni muvofiqligi va takliflarni qabul qilish bo’yicha qarorlar Komissiya tomonidan qabul qilinadi.

5.3. II-bo’lim, texnik topshiriqda keltirilgan normalar va texnik topshiriqlarga mos kelmagan takliflar diskvalifikasiya qilinadi.

5.4. Tanlash ishtirokchisi tanlash predmeti bo’lgan Xizmatlarni texnik baholash uchun Buyurtmachiga tadbirni tashkil etish va o’tkazish bo’yicha taqdimot qilib berishi lozim. Xizmat taqdimoti Buyurtmachi manzilida o’tkazilishi lozim. Xizmat taqdimotini o’tkazmagan tanlash ishtirokchilari tanlashdan chetlashtiriladi.

5.5. Tanlash ishtirokchisi texnik taklifda Xizmat bo’yicha qo’shimcha ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin.

6. Malakaviy saralash hujjatlari

6.1. Malakaviy saralash hujjatlari ro’yxati:

-tanlashda ishtirok etishga ariza-xat (ariza shakli 1-sonli ilovada keltirilgan);

-tanlash ishtirokchisining umumiy ma’lumoti (ma’lumotnoma shakli 2-sonli ilovada keltirilgan);

-tanlash ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida, insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda mavjud emasligi haqida, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarning yo'qligi to'g'risida kafolat xati (kafolat xati shakli 3-sonli ilovada keltirilgan);

-tegishli davlat ro'yxatga olish organlari tomonidan berilgan ishtirokchi ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

-ishtirokchi tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza.

Agar tashkilot (korxonalar) rahbari tanlashda ishtirok eta olmasa, quyidagi vakolatlariga ega ishonchli vakil nomiga rasmiylashtirilgan ishonchnoma (ishonchnoma shakli 4-sonli ilovada keltirilgan) taqdim etish kerak:

a) tanlash taklifini (hujjatlarini) taqdim etish;

b) buyurtmachi va ishchi organ bilan muzokaralar olib borish;

v) Tanlash xarid komissiyasi majlislarida qatnashish;

g) tanlash taklifining texnik va narx qismiga, shuningdek boshqa masalalarga aniqlik kiritish.

6.2. Zarur hollarda komissiya tanlash ishtirokchilaridan taqdim qilingan takliflar yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar (shartnoma nusxalari, oldingi yillar uchun moliyaviy hisobotlarning asl nusxalari va boshqa zarur ma'lumotlar) taqdim qilinishini qo'shimcha ravishda talab qilishi mumkin.

7. Texnik taklifni rasmiylashtirish

7.1. Ishtirokchi texnik taklif jadvalining asl nusxasini, ushbu yo'riqnomaga ilova qilingan 5-sonli shaklga muvofiq rasmiylashtirib 1-sonli ichki konvertga joylagan holda taqdim etishi lozim.

7.2. Texnik taklif tanlash hujjatining texnik topshiriq qismida ko'rsatilgan talablarga muvofiq bo'lishi lozim. Belgilangan talablarga nisbatan ustun takliflar bilan xizmatlarni yetkazib berish bo'yicha takliflarga yo'l qo'yiladi. Bunda ustun takliflarni muvofiqligi va takliflarni qabul qilish bo'yicha qarorlar Komissiya tomonidan qabul qilinadi.

7.3. II-bo'lim, texnik topshiriqda keltirilgan normalar va texnik topshiriqlarga mos kelmagan takliflar diskvalifikatsiya qilinadi.

7.4. Tanlash ishtirokchisi tanlash predmeti bo'lgan Tovarlardan texnik baholash uchun bir birlikda namuna taqdim etishi lozim. Namuna taqdim etmagan tanlash ishtirokchilari tanlashdan chetlashtiriladi.

7.5. Tanlash ishtirokchisi texnik taklifida tovar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

8. Narx taklifini rasmiylashtirish

8.1. Ishtirokchi narx taklifi jadvalining asl nusxasini, ushbu tanlash hujjatiga ilova qilingan 6-sonli shaklga muvofiq rasmiylashtirib, 2-sonli ichki konvertga joylagan holda taqdim etishi lozim.

8.2. Ishtirokchining narx taklifi barcha xarajatlarini (soliqlar, xodimlarning ish haqi, yetkazib berish, o'rnatish va boshqalarni) o'z ichiga olishi lozim.

8.3. Har qanday bosqichda narxlarni ko'tarilish tomonga o'zgarishini nazarda tutuvchi tanlash taklifi tanlash talablariga javob bermaydigan deb hisoblanadi va komissiya tomonidan keyingi ko'rib chiqish rad etiladi.

9. Tanlash taklifining amal qilish muddati

9.1. Tanlash ishtirokchisining takliflari, tanlash takliflarini qabul qilish tugaydigan kun sifatida belgilangan sanadan boshlab kamida bir oy mobaynida kuchda qolishi lozim.

9.2. Ayrim hollarda komissiya tanlash ishtirokchisini taklifini amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida iltimos qilishi mumkin. Bunday iltimos va unga javob xat ko'rinishida rasmiylashtiradi.

10. Tanlash taklifi konvertlarini ochishni o'tkazish tartibi

10.1. Komissiya o'zining qarori bilan konvertlarni ochish vaqtini belgilaydi. Tanlash ishtirokchisi konvertlar ochish vaqtida ishtirok etishi mumkin, bunda ishtirokchi Buyurmachiga yozma murojat etishi lozim. Tanlash ishtirokchisi vakilining konvert ochish vaqtida yo'qligi konvert ochilmasligi uchun asos bo'lmaydi.

10.2. Konvertlarni ochish ikki bosqichda o'tkaziladi. Tashqi konvertda talab etilgan biror bir hujjatning yo'qligi ushbu tanlash taklifi kelgusida ko'rib chiqilishini rad qilishi mumkin, bunda ichki konvertlar ochilishi amalga oshirilmaydi va o'rnatilgan tartibda tanlash ishtirokchisiga qaytarib beriladi.

10.3. Tashqi konvertni ochish yo'li bilan Komissiya tomonidan tanlash ishtirokchisining malakaviy saralanishi amalga oshiriladi. Malakaviy saralash va texnik takliflarni ochish bir bosqichda o'tkazilishi mumkin.

10.4. Tanlash takliflari tashqi konverti ochilish vaqtida tanlash ishtirokchilari nomlari, tanlash takliflarining tegishli hujjatlari mavjudligi yoki yo'qligi e'lon qilinadi.

10.5. Narx taklifi texnik bosqichdan o'tkazilgan ishtirokchilarda ochiladi.

10.6. Komissiya majlisidagi muhokamalar va tanlash ishtirokchilari bo'yicha konvertlarni ochish natijalarini komissiya yig'ilishi bayonnomasiga kiritiladi.

11. Ishtirokchilarni malakaviy saralashdan o'tkazish tartibi

11.1. Tanlashda ishtirok etish uchun malakaviy saralash o'tkazilganda tanlashning quyidagi ishtirokchilari qo'yilmaydi:

belgilangan muddatda malakaviy saralash uchun barcha zarur hujjatlarni taqdim qilmagan;

shartnoma tuzishga vakolatli bo'lmagan;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi bo'lgan;

qayta tashkil qilish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan;

tugatish bosqichida bo'lgan;

davlat buyurtmachisi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi holatida bo'lgan;

insofsiz ijrochilarning Yagona reestrda bo'lgan;

davlat buyurtmachisi bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha zimmasiga olingan majburiyatlarni tegishli baxajarmagan;

tanlash hujjatlari talablariga muvofiq tashqi konvert ichida talab etilgan hujjatlarni taqdim etmagan;

muassislari bitta yuridik va jismoniy shaxslar bo'lgan ishtirokchilar.

11.2. Insofsiz ijrochilarning Yagona reestrda bo'lgan tanlash ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun davlat buyurtmachisi maxsus axborot portaliga murojaat qiladi.

11.3. Malakaviy saralashdan o'tkazish yoki o'tkazishdan rad etish to'g'risidagi qaror Komissiya a'zolari tomonidan qabul qilinadi.

12. Tanlash takliflarini baholash tartibi va g'oliblarni aniqlash

12.1. Komissiya malakaviy saralashdan o'tgan ishtirokchilarning texnik va narx takliflarini baholashdan o'tkazadi.

12.2. Ishtirokchining texnik taklifi texnik topshiriqda ko'rsatilgan talablarga «muvofig» yoki «muvofig emas»ligi baholanadi.

12.3. Texnik baholash natijalariga ko'ra texnik taklifi «Muvofig emas» deb topilgan Ishtirokchi baholashning keyingi bosqichi – narxli baholashga qo'yilmaydi va narx taklifi konverti ochilmagan holda ishtirokchiga qaytarib beriladi.

12.4. Komissiya texnik taklifi «Muvofig» deb baholangan ishtirokchilarning narx takliflarini ochadi va baholaydi.

12.5. Tanlash ishtirokchilarining narx takliflari e'lon qilingandan so'ng Komissiya tanlash taklifining eng past narxlarida berilgan ballar uchun g'olib va zahira ijrochini aniqlaydi.

12.6. Narx taklifini baholash mezonlari: eng past narx – eng yuqori ball (100 ball), eng baland narx – eng past ball. Narxlarning eng past narxga foiz sifatida o'sishi, eng past narx punktlari uchun bog'langanlar sonining bog'liq ravishda pasayishi sifatida baholanadi.

12.7. Takliflarni baholash yakunlari bo'yicha taklifi eng ko'p ball olgan (shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan) ishtirokchi tanlash g'olibi deb topiladi.

12.8. Agar tanlash taklifi Tanlash hujjatlarining barcha talablariga javob bersa, biroq narxlar jadvalida arifmetik xatolar bo'lsa, Komissiya ushbu taklifni rad qilishi yoki ishtirokchi roziligiga ko'ra ushbu xatolarni tuzatishga haqli.

Tanlash ishtirokchisi Komissiya tomonidan amalga oshirilgan tuzatishlarga rozi bo'lmagan taqdirda ushbu taklif Tanlash hujjatlari talablariga javob bermaydigan taklif sifatida baholanadi va rad qilinadi. Tuzatishlar qabul qilinganda, tanlash ishtirokchisi tuzatishlarni qabul qilishga rozilik berganligi haqidagi tanlash ishtirokchisi imzosi va muhri qo'yilgan rasmiy xatni taqdim qiladi.

12.9. Har bir lot bo'yicha tanlash g'olibi to'g'risidagi rasmiy qaror Komissiya qarori bilan qabul qilinadi. Ushbu masala bo'yicha qaror Komissiya a'zolarining umumiy sonidan oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Komissiya raisi ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

12.10. Tanlashda ishtirok etish uchun tanlash ishtirokchilarining huquqlarini boshqa yuridik shaxslarga berishga yo'l qo'yilmaydi.

12.11. G'oliblar va zahira ijrochilar ro'yxati komissiyaning bayonnoma qarori bilan qabul qilinadi va rasmiylashtirilgandan so'ng 2 ish kuniga davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun joylashtiriladi.

13. Shartnomani imzolash

13.1. Komissiyaning tanlash bo'yicha qabul qilgan qarori bayonnomasi yuzasidan 2 ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmasa, ushbu qaror yakunlari bo'yicha Komissiya kotibi tanlashning g'olib bo'lgan ishtirokchisiga uning taklifi qabul qilinganligi haqida xabar beradi va shartnoma tuzishni taklif etadi.

13.2. Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar Komissiya tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, komissiya e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

13.3. Buyurtmachi mazkur Tanlash hujjatlarining III-bo'limiga muvofig shakl bo'yicha tanlash g'oliblariga shartnoma proformasini yuboradi.

13.4. Shartnoma proformasi olingan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kun mobaynida tanlashning g'olib bo'lgan ishtirokchisi davlat buyurtmachisi bilan tegishli shartnomani imzolashi lozim.

G'olib bilan tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab 3 ish kundan kechiktirmay joylashtiriladi.

13.5. Tanlash g'olibi tanlash shartlari asosida shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda shartnoma tuzish huquqi zaxira ijrochisiga o'tadi. Bunda zaxira ijrochisi tanlash g'olibi taklif qilgan narxda shartnoma tuzishi mumkin yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

13.6. Miqdoriy, sifat va texnik parametrlari bo'yicha shartnomani bajarmagan tanlash g'olibi qonun hujjatlari va/yoki shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

14. Tanlashni o'tkazilmagan deb e'lon qilish

14.1. Tanlash quyidagi holatlarda Komissiya tomonidan tanlash o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:

tanlashda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan bo'lsa;

takliflarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Komissiya barcha takliflarni rad etgan bo'lsa;

faqatgina bitta taklif tanlash hujjatlari talablariga muvofiq kelsa tanlash o'tkazilmagan deb topiladi.

Tanlash talablariga doir biror o'zgartirish kiritish zarurati paydo bo'lganda Komissiya asoslarni keltirgan holda tegishli qarorni qabul qiladi.